

## Innovatsiya – barqaror rivojlanish omili



O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning hozirgi bosqichida innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘shish hamda rivojlanish maqsadida chuqur ilmiy strategiyani ro‘yobga chiqarish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun qulay muhit yaratilgan. Bugun davlat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar va novator-olimlar o‘rtasida amaliy munosabatlarni mustahkamlash asosiy vazifalardandir


**Innovatsiya** - bu korxonalar yoki tashkilotning bozorga chiqarish (amaliyotga joriy qilish) uchun mo‘ljallangan ijodiy faoliyatining samarasidir. **Innovatsion faoliyat** oxirgi 3 yil davomida yakunlangan yangi bilimlarga sarmoya kiritishni qo‘shgan holda texnologik jihatdan **yangi** yoki **sezilarli darajada** takomillashtirilgan mahsulotlar yoki jarayonlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat chora-tadbirlarini qamrab oluvchi faoliyatdir. Boshqacha aytganda innovatsiya bu ilmiy bilimga asoslangan g‘oyaning tovar (ishlar va xizmatlar) ga aylanishidir.

Jumladan, Andijon viloyatida 2017 yil davomida jami 94 ta xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar tomonidan o‘z kushi bilan jami 3765,6 mlrd so‘mlik innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar bajarilgan va 3542,5 mlrd so‘mlik mahsulot realizatsiya qilingan. 60 ta xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar tomonidan 2017 yilda birinchi marotaba, 38 ta xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar tomonidan 2015-2016 yillarda innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar o‘zlashtirilgan. Qolgan 6 ta xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar tomonidan 2015-2017 yillar davomida takomillashtirilgan innovatsion mahsulotlar amaliyotga tadbiriq etilgan.

## 2017 yilda Andijon viloyati boyicha bajarilgan innovatsion faoliyat natijaiari

Ko'rsatkichlar	Jami	2017 yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2015-2016 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2015-2017 yillarda takomillashtirilgan
Innovatsion faoliyat ko'rsatgan xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar soni	94	60	38	6
O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan, ishlar, xizmatlar xajmi (QQS va aksizsiz ) mlrd so'm	3765,6	245,5	3362,8	157,4
O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan, ishlar, xizmatlarning sotilishi (QQS va aksizsiz ) mlrd so'm	3542,5	227,7	3158,2	156,7


## 2017 yilda Andijon viloyati boyicha bajarilgan innovatsion faoliyat natijaiari



2017 yil davomida jami 77 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan o'z kuchi bilan 88,3 mlrd so'mlik innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar amalga oshirilgan va 84,6 mlrd somlik mahsulot sotilgan. Undan 49 tasi 2017 yilda birinchi marotaba o'zlashtirilgan, 28 tasi 2015-2016 yillarda o'zlashtirilgan.


### 2017 yilda Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan innovatsion faoliyat natijalari

Ko'rsatkichlar	Jami	2017 yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2015-2016 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2015-2017 yillarda takomillashtirilgan
Innovatsion faoliyat ko'rsatgan xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar soni	77	49	28	0
O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan, ishlar, xizmatlar xajmi (QQS va aksizsiz) mlrd so'm	88,3	37,9	50,4	0
O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan, ishlar, xizmatlarning sotilishi QQS va aksizsiz) mlrd so'm	84,6	37,4	47,2	0



2017 yil davomida moliyalashtirish manbaalari bo'yicha jami 41272,5 mln so'mlik xarajat qilingan. Undan 35747,4 mln som tashkilotning o'z mablag'lari

hisobidan, 2872,4 mln somi chet el investitsiyalari hisobidan, 1540,2 mln so'm tijorat banklari krediti hisobidan, 457,3 mln som budjet mablag'lari hisobidan va 655,2 mln so'm boshqa mablag'lar hisobidan xarajatlar amalga oshirilgan.



Andijon viloyati bo'yicha 2017 yil davomida jami **texnologik, marketing** va **tashkiliy** innovatsiyalar bo'yicha 41272,5 mln som xarajat qilingan. Ularning 95,0 % yani 39229,2 mln so'mi texnologik innovatsiyalar, 4,3 % yani 1791,2 mln somi marketing innovatsiyalar va qolgan 0,6 % tashkiliy innovatsiyalar tashkil etadi.

2017 yil davomida viloyat bo'yicha 1946 ta **texnologik innovatsiyalar** joriy qilingan bo'lib, ulardan 1786 tasi o'z kuchi bilan, 72 tasi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda va 88 tasi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirildi.

**Marketing innovatsiyalar** bo'yicha jami joriy qilingan innovatsiyalar 62 tani tashkil etgan. Ularning 55 tasi o'z kuchi bilan, qolgan 7 tasi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan.

**Tashkiliy innovatsiyalar** bo'yicha 2017 yil davomida jami 38 ta innovatsiyalar amaliyotga joriy qilingan. Ulardan 29 tasi tashkilotning o'z kuchi bilan, 6 tasi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda va qolgan 3 tasi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan.

## 2017 yilda Andijon viloyati bo'yicha joriy qilingan innovatsilar soni

Innovatsiya turlari	Jami	Shu jumladan tadqiq qilinganlar :				
		Q'z kuchi bilan	Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	ulardan :		Boshqa tashkilotlar tomonidan
				ITI lari bilan hamkorlikda	OTM bilan hamkorlikda	
Texnologik innovatsiyalar	1946	1786	72	42	20	88
shu jumladan:						
- mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	1372	1279	37	22	7	56
- jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	574	507	35	20	13	32
Marketing innovatsiyalar	62	55	-	-	-	7
Tashkiliy innovatsiyalar	38	29	6	6	-	3



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**  
**ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**  
**IJTIMOIY SOHA STATISTIKASI BO'LIMI**  
**TELEFON (0371-230-82-70);**  
**(0374-228-30-75);**